

XALQ TABOBATIDA ANTIGELMINT XUSUSIYATLI DORIVOR O'SIMLIKLARNI BOTANIK TASNIFI

Namangan davlat universiteti

Dorivor o'simliklar yetishtirish mutaxassisligi

2-bosqich magistranti

Mehmonxo'jayev Yoqubxo'ja Ne'matxo'ja o'g'li

Abdug'aniyeva Saidaxon Nosirjon qizi.

Annotatsiya: Hozirgi kunda yer yuzida dorivor o'simliklarning 10-12 ming turi borligi aniqlangan, shulardan 1000 dan ortiq turining kimyoviy, farmakologik va dorivorlik xossalari o'rganilgan. Bu dorivor o'simliklar ichida bir qancha turlari borki, ulardan gelmintoz kasalliklarini davolashda foydalaniladi. O'simliklar o'z tarkibida ma'lum kasallikka shifo bo'la [oladigan](#), kishi organizmiga qandaydir ta'sir ko'rsata oladigan biologik faol moddalar saqlaydi. Mana shu biologik faol moddalar o'simliklarning hamma organlarida bir xil miqdorda to'planmaydi. Ba'zi bir moddalar ko'proq o'simliklarning yer ostki organlarida, boshqalari esa yer ustki organlarida to'planadi.

Kalit so'zlar: dorivor, antigelmint, gijja, dastarbosh, [askarida](#), ostritsa, paporotnik, shuvoq.

БОТАНИЧЕСКАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ ЛЕКАРСТВЕННЫХ РАСТЕНИЙ С ПРОТИВОГЕЛЬМИНТНЫМИ СВОЙСТВАМИ В НАРОДНОЙ МЕДИЦИНЕ

Аннотация: В настоящее время на земле насчитывается 10-12 тысяч видов лекарственных растений, изучены химические, фармакологические и лечебные свойства более 1000 видов. Среди этих лекарственных растений есть несколько видов, которые применяют при лечении глистных заболеваний. В

растениях содержатся биологически активные вещества, способные излечивать некоторые заболевания и оказывать определенное влияние на организм человека. Эти биологически активные вещества не собираются в одинаковом количестве во всех органах растений. Одни вещества больше накапливаются в подземных органах растений, другие — в надземных.

Ключевые слова: лекарство, антгельминт, червь, дастарбош, аскарида, вешенка, папоротник, полынь.

BOTANICAL CLASSIFICATION OF MEDICINAL PLANTS WITH ANTIHELMINT PROPERTIES IN FOLK MEDICINE

Abstract: Currently, there are 10-12 thousand species of medicinal plants on the earth, and the chemical, pharmacological and medicinal properties of more than 1000 species have been studied. Among these medicinal plants, there are several species that are used in the treatment of helminthic diseases. Plants contain biologically active substances that can cure certain diseases and have some effect on the human body. These biologically active substances are not collected in the same amount in all organs of plants. Some substances accumulate more in the underground organs of plants, and others in the above-ground organs.

Key words: medicinal, anthelmintic, wormwood, dastarbosh, ascarida, oyster, fern, wormwood.

Аннотация: В настоящее время на земле выявлено 10-12 тысяч видов лекарственных растений, из них более 1000 видов имеют химические, фармакологические и лечебные свойства. Этот препарат имеет несколько разновидностей асимметрии, которые используются для лечения гельминтозных заболеваний. Растение содержат биологически активные вещества, способные вылечить малоизвестное заболевание, оказать какое-то влияние на организм человека, в небольшом количестве. Вот эти биологически активные вещества не накапливаются в одинаковых

количествах во всех органах растений. Одни вещества накапливаются в надземных органах а другие в подземных органах растений.

Ключевые слова: лекарственное средство, антигельминт, рвота, пустырник, аскарида, острица, папоротник, полынь.

Ma'lumki, odam va hayvonlarda uchrydigan kasalliklarni davolash hamda shu kasalliklarning oldini olish maqsadida ishlatiladigan o'simliklar dorivor o'simliklar hisoblanadi. Hozirgi kunda yer yuzida dorivor o'simliklarning 10-12 ming turi borligi aniqlangan, shulardan 1000 dan ortiq turining kimyoviy, farmakologik va dorivorlik xossalari o'rganilgan. Bu dorivor o'simliklar ichida bir qancha turlari borki, ulardan gelmintoz kasalliklarini davolashda foydalaniladi. O'simliklar o'z tarkibida ma'lum kasallikka shifo bo'la oladigan, kishi organizmiga qandaydir ta'sir ko'rsata oladigan biologik faol moddalar saqlaydi. Mana shu biologik faol moddalar o'simliklarning hamma organlarida bir xil miqdorda to'planmaydi. Ba'zi bir moddalar ko'proq o'simliklarning yer ostki organlarida, boshqalari esa yer ustki organlarida to'planadi. Ana shularni inobatga olgan holda, ushbu maqolada gelmintlarga qarshi ishlatiladigan bir qancha dorivor o'simliklarning biologik tasnifini keltirilgan. Kakra (Acroptilon repens) Kakra - o'simlik tavsifi: Asteraceae oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik, balandligi 20-60 sm. Poyasi tik turuvchi, yuluqli yoki to'rsimon tuklangan, o'troq bezli tukchali, deyarli asosidan ser shoxlangan, novdalari uzunlashgan, ingichka, zichbargli, yuqorida yolg'iz savatchalari bor. Barglar terisimon, yon tomondan kulrang-yashil rangga ega, pastki tomoni qalinroq, tarqoq to'rsimon, o'troq bezli tukchalar bilan tuklangan, ikkala uchiga cho'zilgan, lansetsimon yoki deyarli chiziqlilansetsimon, yuqorigi tomoni qisqa o'tkirlashgan, chetgi qismida kalta yo'g'on so'rg'chlariga ega; pastki barglar oralari ochiq tishsimon, kamdan-kam hollarda patsimon qirqilgan, yuqorilari kichikroq, chetlari butun, kamroq 1-2 tishchali bo'ladi. Savatchalar tuxumsimon, eni 6-8 mm, uzunligi 15-17 sm, chiqib

turuvchi gullari bor. O'ramabarglari ko'p sonli, terisimon, yashilsimon rangli, yarim dumaloq shaklida, yuqorisi qisqa o'tkirlashgan, yupqa pardasimon, tiniq o'simtasi bor, tashqi tomondagilari tuxumsimon, o'simtasiga o'tgan joyda ikki tomonlama to'rsimon, o'simtasi kalta qattiq tuklar bilan tuklangan, ayniqsa qirrasini bo'ylab, o'rta o'ramabarglar sekin-asta cho'zinchoq shaklgacha uzunlashadi, yuqoridagi kabi kalta qattiq tukli o'simtasi bor, ichki o'ramabarglar tor lansetsimon, zich tuklangan, lansetsimon, o'tkirlashgan o'simtalari mavjud. Gullari pushti rangga ega. Gulo'rinning dag'al tuklari oq, silliq. Pistacha teskari tuxumsimon, ochrang, ingichka, bilinmas chiqib turgan bo'ylama tomirlari bor, popuklarning dag'al tuklari oson to'kiluvchi. Popuklarning dag'al tuklari ko'p sonli, oq, qisqa patsimon. Iyun-iyul oylarida gullaydi, iyul-avgust oylarida mevalaydi. 155 O'sish joyi va tarqalishi: U dashtlarda, sho'rtob o'tloqlarda, sho'rxoq yerlarda, qumli-tosh joylarda, daryolarning toshli qirg'oqlarida, ko'llarda, toshli, gilli qiyaliklarda, qatlamlarda, ekinzorlarda, yo'llar bo'ylarida, tog' mintaqasining quyi qismidan yuqorisigacha o'sadi. Begona o't. Butun respublikada tarqalgan. Xom ashyoni yig'ish va uning sifati: Dorivor maqsadlarda gullash davrida (poyalari, barglari, gullari) o't qismini va mevalari – iyul-avgust oylarida yig'iladi. Salqin qorong'i joyda quritiladi. Kimyoviy tarkibi: O'simlik kam o'rganilgan, tarkibida alkaloidlar, smola va efir moylari mavjud. Ildizlari tarkibida murakkab uglevod inulin mavjud bo'lib, uning miqdori bahorgacha kamayadi. Poyalanish bosqichi va g'unchalash boshlanishigacha uning miqdori boshlang'ich darajaga ko'tariladi. Inulinning eng katta miqdori yer usti massasining qurib qolish bosqichida to'planadi, ya'ni boshlang'ich darajaga nisbatan deyarli ikki baravar ko'p bo'ladi. Tibbiyotda qo'llash: Kakraning suvli ekstraktidan xalq tabobatida bezgak, epilepsiya va qichima kasalliklarida ishlatiladi. Gijja tushiruvchi (antigelmint) vosita sifatida mevalarining qaynatmasi ichiladi. Kakraning dori shakllari, qo'llanish usuli va preparatlarini dozalari: Kakra o'tining damlamasi: 1 stakan qaynoq suvga 1 choy qoshiq quruq maydalangan o't solinadi. O'rab qo'yib 1 soat davomida damlanadi,

suzgichdan o'tkaziladi. Bezgak va epilepsiyani davolashda 1-2 oshqoshiqdan kuniga 3 marta ovqatdan 15 daqiqa oldin ichiladi. Kakra o'tining qaynatmasi: 1 choy qoshiq quruq maydalangan o'tning ustiga 1 stakan qaynoq suv quyib, yopiq idishda 30 daqiqa davomida qaynoq suv hammomida damlanadi, xona haroratida 10 daqiqa davomida sovutiladi, suzgichdan o'tkaziladi. Tashqi tomonga yuvinish, dokani ho,,llab qo,,yish, kompress shaklida qo'llaniladi. Kakra qaynatma: 1 stakan qaynoq suv bilan 1 choy qoshiq mevalari 156 damlanadi, sekin olovda 10-15 daqiqa davomida qaynatiladi, 10 daqiqaga damlab, suzgichdan o'tkaziladi. 1 osh qoshiqdan ovqatdan 30 daqiqa oldin kuniga 4-5 marta ichiladi. Qo'llanishi mumkin bo'lmagan holatlar: Kakra zaharli o'simlik bo'lganligi uchun ichga qabul qilish juda ehtiyotkorlikni talab qiladi. Kakra preparatlari bilan zaharlanish ularni haddan tashqari katta miqdorda qabul qilganda ro'y beradi, bunda ko'ngil aynishi, oshqozon og'rig'i, bosh og'rig'i kuzatiladi. Bunday holda, oshqozonni faol uglerodning suvli suspenziyasi yoki kaliy permanganatning (kaliy permanganat) 0,1% eritmasi bilan yuvish kerak; ichga sho'rli ich suruvchi, yuqori tozalovchi klizmalar tavsiya etiladi. Kakra o'simliklar ko'plab hayvonlar, ayniqsa, otlar uchun zaharli, ammo qo'ylar va echkilar tomonidan yaxshi iste'mol qilinadi. Kakrani g'unchalash paytida hayvonlar ekanligi oqibatida zaharlanish holatlari ko'p uchraydi.

ODDIY DASTARBOSH (TANACETUM VULGARE L.)

O'simlik tasnifi. Astradoshlar (murakkabguldoshlar) – Asteraceae (Compositae) oilasiga mansub, bo'yi 50-150 sm bo'ladigan ko'p yillik o't o'simlik. Poyasi tik o'sadi, sershox. Barglari patsimon ajralgan, ustki tomoni to'q yashil, orqa tomoni kulrang-yashil bo'lib, bandi yordamida (poyasining pastki qismidagilari) yoki bandsiz (poyasining o'rta va yuqori qismidagilari) poyasi bilan shoxlarida ketma-ket o'rnashgan. Barg bo'lakchalari cho'ziq nishtarsimon, patsimon qirqilgan yoki tishsimon qirrali. Savatchaga to'plangan sariq rangli gullari qalqonsimon to'pgulni tashkil etadi. Mevasi – cho'ziq pista. Iyul – sentabr oylarida gullaydi, avgust – oktabrda mevasi yetiladi.

Geografik tarqalishi. Uzoq shimol va cho'l zonalaridan tashqari hamma yerda – yo'l yoqalarida, aholi yashaydigan joylarga yaqin yerlarda, o'tloqlarda, o'rmon chetlarida va suv bo'ylarida o'sadi. O'rta Osiyoda oddiy dastarbosh Qirg'iziston, Tojikiston va Qozog'iston respublikalarida uchraydi. Qo'llaniladigan qismi. Guli (to'pgullari). Gullari o'simlik gullagan vaqtida to'pgullarini qisqa bandi bilan (2 sm dan uzun bo'lmasligi kerak) qirqib olinadi va salqin yerda yoki harorati 40⁰ bo'lgan quritgichlarda quritiladi.^[1] Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Gullari tarkibida 1,5 – 2 % efir moyi, flavonoidlar (kversetin, lyuteolin, apigenin, diosmetin), alkaloidlar, achchiq tanasetin, oshlovchi va boshqa moddalar bor. Gullarning efir moyi 47 % gacha tuyol spirtidan va boshqa birikmalardan tashkil topgan. Gullarning damlamasi va poroshogi gijjalarni (askarida va ostritsalarni) tushurishda va jigar kasalliklarida o't haydovchi vosita sifatida hamda ba'zi ichak kasalliklarini davolash uchun qo'llaniladi. Dastarbosh guli o't haydovchi (jigar, o't pufagi va o't yo'llari kasalliklarida ishlatiladigan) choylar – yig'malar hamda Zdrenko yig'masi tarkibiga kiradi. Gullaridan olingan tanatsexol preparati jigar va o't pufagi kasalliklarida o't haydovchi dori sifatida ishlatiladi. Dastarbosh gullari qadimdan xalq tabobatida turli kasalliklarni davolash uchun ishltib kelingan. Gullaridan tayyorlangan damlama gijjalarni tushurish, isitma, ba'zi me'da – ichak va boshqa kasalliklarni davolash uchun, yel va o't haydovchi vosita sifatida hamda yaralarni davolashda qo'llaniladi. Dori tayyorlash va foydalanish. 1. Qurigan dastarbosh guli va bargi aralashmasidan 4 osh qoshiq olib bir stakan qaynoq suvga solinadi va yarim – bir soat damlab qo'yiladi. Sovigach dokadan o'tkazib mayda gijjalarni tushirish uchun kuniga 3 mahal 1 osh qoshiqdan ichiladi.

2. Gullari aralashmasidan tayyorlangan damlama ham mayda gijjalarni tushirish uchun kuniga uch mahal yarim choy qoshiqdan ichiladi.

3. Ildizining yirik kukunidan 2 choy qoshiqda olib 1 stakan qaynoq suvga solinadi – da, 2 – 3 soat damlab qo'yiladi. So'ngra dokadan o'tkazib, kechqurun ostritsa gijjalarni tushirish uchun yarim stakandan 3 – 4 kun huqna qilinadi.

4. Damlamalarini dorixonadan olib yuqorida aytib o'tilgan kasalliklarda ichish ham mumkin.

ERKAK PAPEROTNIK (DRYOPTERIS FILIX MAS L.)

O'simlik tasnifi. Qirqquloqdoshlar – Polypodiaceae oilasiga mansub, ko'p yillik, yuqori sporali o't o'simlik. Ildizpoyasi qisqa, yo'g'on, [mayda ildizli](#), qoramtir qo'ng'ir tangacha burglar bilan qoplangan, poyasi bo'lmaydi. Barglari cho'ziq ellipssimon, o'tkir uchli, yirik (uzunligi 1 m va undan ortiq), bandli, qo'shpatsimon ajralgan. Birinchi tartibdagi barg bo'laklari nishtarsimon yoki ingichka nishtarsimon, o'tkir uchli, qisqa bandli, ikkinchi tartibdagi bo'laklari yumaloq yoki cho'zinchoq tuxumsimon, to'mtoq tishsimon qirrali bo'ladi.

Erkak paporotnik sporalari avgust – sentabr oylarida yetiladi.

Geografik tarqalishi. Barcha salqin o'rmonlarda, butalar orasida, nam joylarda va O'rta Osiyodagi tog'li joylarda uchraydi.

Qo'llaniladigan qismi. Ildizpoyasi. Uni kuzda kovlab olinadi, mayda ildizlari va ildizpoyasining qurib qolgan qismidan hamda barg qoldiqlaridan tozalanadi. Yo'g'on ildizpoyalari mayda bo'laklarga qirqib, bir necha kun usti berk joyda, keyin harorati 40⁰ li quritgichda quritiladi. Ko'pincha ildizpoyasi quritilmasdan ekstrakt tayyorlash uchun zavodlarga yuboriladi. Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Ildizpoyasi tarkibida 3 – 4 % [xom filitsin](#), sof holda floriglyutsidlar (filiks kislota, flavaspid kislota, albaspidin, flavaspidin), efir moyi, flavonoidlar, 6 % gacha yog', kraxmal, saxaroza, 8 % gacha oshlovchi moddalar bo'ladi. Xom filitsin tarkibida floriglyutsidlar bor.

Ildizpoyasidan tayyorlangan quyuq ekstrakti (kapsulada chiqariladi) va ekstrakt tabletkasi – filiksan lentasimon gijjalarni haydash uchun ichiladi. Xalq tabobatida ham erkak paporotnik (qirqquloq) qdimdan gijjalarni haydash uchun ishlatib kelingan. Shu maqsadda uni Abu Ali ibn Sino ham qo'llagan. Hozirgi vaqtda uning ekstrakti 0,5 gr dan kapsulalarda, 15 donadan shisha idishlarda chiqariladi. Uni vrach retsepti va ko'rsatmasi bilan gijjalarni tushirishda ichiladi. Dozasi bolalar yoshiga qarab qat'iy belgilanadi Jigar, buyrak kasalliklarida me'da, o'n ikki barmoq ichak yarasida, [yurak ishi yetishmovchiligida](#), isitmada, kamqonlikda va boshqa bir qator kasalliklarda uni ichishga ruxsat etilmaydi.

BIR YILLIK SHUVOQ (ARTEMISIA ANNUA L.)

O'simlik tasnifi. Bo'yi 30 – 100 sm ga yetadigan bir yillik o't o'simlik. Poyasi tik o'sadi, yuqori qismi shoxlangan, yashil yoki qizg'ish rangli. Barglarining umumiy ko'rinishi tuxumsimon, pastki qismidagilari uzun bandli, o'rta qismidagilari kalta bandli, 2 marta patsimon ajralgan, eng yuqoridagilari mayda va bandsiz bo'lib, hamma barglari poyasi bilan shoxlarida ketma – ket o'rnashgan. Barg bo'lakchalari tuxumsimon, nishtarsimon, o'tkir uchli, tishsimon yoki tekis qirrali. Mayda, sariq rangli gullardan tashkil topgan sharsimon savatchalar shoxlari uchida to'planib keng ro'vaksimon to'pgulni hosil qiladi. Mevasi – pista. [Iyul oyida gullaydi](#), mevasi oktabrda yetiladi. Geografik tarqalishi. O'rta Osiyo respublikalarida keng tarqalgan bo'lib, tog'larning yon bag'irlarida, yalangliklarda, to'qaylarda, aholi yashaydigan va boshqa yerlarda o'sadi. Qo'llaniladigan qismi. Yer ustki qismi. Uni o'simlik gullagan vaqtida poyasining serbarg va gulli yuqori qismi o'rib olinadi va soya yerda quritiladi.^[3] Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Yer ustki qismi tarkibida 0,21 – 0,64 % efir moyi, 73,9 mg % vitamin C, vitamin K, karotin, alkaloidlar, 5,5 % qandlar, smola, 2,4 – 4,15 % oshlovchi va boshqa moddalar bor.

O'simlik efir moyi 20 % pinen, 10 – 25 % tsineol, 8,22 % kamfora, 30 % kadinen, 7 % kampfen, borneol, 12 – 16 % aldegid, 8,3 – 18,33 % spirt, 8 % kislota va boshqa birikmalardan tarkib topgan. Yer ustki qismidan tayyorlangan qaynatmasi xalq tabobatida ishtaha ochish va yuqumli ichak kasalliklarini davolash uchun qo'llaniladi. Barg poroshogidan tayyorlangan surtma dori va barg shirasi qo'tir, teridagi yiringli yaralar va boshqa teri kasalliklariga ishlatiladi. Bir yillik shuvoqning gijja haydash ta'siriga ega ekanligi tajribada aniqlangan va tibbiyotda shu maqsadda ishlatishga tavsiya etilgan. Bolgariyada shuvoqning yer ustki qismidan gijja haydovchi dori olingan.^[4]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xolmatov H.X. , Qosimov A.I. – “Dorivor o'simliklar”. – T. : «Ibn Sino» [nashriyoti](#), 1994. – b. 251-260, 263-268
2. Xolmatov H.X. , Habibov Z.H. – “O'zbekistonning shifobaxsh o'simliklari”. – T. : «Ibn Sino» nashriyoti, 1990. – b. 115-122
3. Xojimatov Q. X. – “O'zbekistonning vitaminli o'simliklari”. – T. : «Fan» nashriyoti, 1993. – b. 245-252, 274-285
4. В. Р. Ркжило – “Мавкины снадобья”. – Винница. : «УАП ХСЛ ВИНО», 1992. – b. 133-140
5. Haydarov Q. , Hojimatov Q. – “O'zbekiston o'simliklari”. – T. : «O'qituvchi» nashriyoti, 1992. – b. 205-215
6. Xolmatov H.X. , Qosimov A.I. – “Dorivor o'simliklar”. – T. : «Ibn Sino» nashriyoti, 1994. – b. 251-260
7. Xojimatov Q. X. – “O'zbekistonning vitaminli o'simliklari”. – T. : «Fan» nashriyoti, 1993. – b. 245-252
8. Xolmatov H.X. , Habibov Z.H. – “O'zbekistonning shifobaxsh o'simliklari”. – T. : «Ibn Sino» nashriyoti, 1990. – b. 115-122
9. Xojimatov Q. X. – “O'zbekistonning vitaminli o'simliklari”. – T. : «Fan» nashriyoti, 1993. – b. 274-285